

TIBBIYOT MUASSASALARINING SHARQ MAMLAKATLARIDAGI KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISH ASPEKTLARI

Ilmiy rahbar: Nazarova Dinara Anvarovna

phD, dotsent TAQU

Toshkent shahar Xalqaro Kimyo universiteti

Arxitektura va Shaharsozlik kafedrası

Arxitektura yo'nalishi

Magistr: Xudoberdiyeva Shahnoza Tohirjon qizi

e-mail:s20026578@gmail.com

Anatatsiya: yurtimizda ko'p yillardan buyon tibbiyot inshaotlari rivijlanib kelmoqda. Tarixga nazar tashlasak tibbiyot ilmi beshigi qadimgi Sharq mamlakatlari hisoblanadi. Amir Temur davriga kelib rivojlanish jadallagan, 1868 – yilga kelib hozirgi kundagi tibbiyot inshaotlari loyixasiga oit tibbiyot inshaotlari tashkil topgan.

Kalit so'zlar: Buxoro, 17-asr, davlat shifoxonalari, loyihalash metodologiyasi, modulli tarmoq, grafik rekonstruksiya, bino o'lchamlari mutanosibligi.

Kirish

Qadimgi Sharq insoniyat jamiyati taraqqiyotining beshigi hisoblanadi. Ilm - fanning hamma sohalari, shu jumladan tibbiyot ilmi ham dastlab Sharq mamlakatlarida kelib chiqqan. Buni arxeologik qazilmalar vaqtida topilgan ashyoviy dalillar va qadimgi qo'lyozmalar isbotlaydi. Masalan, Afrika va Osiyo qit'alarida olib borilgan qazilmalar chog'ida qadim zamonlarda yashagan odamlar qanday kasalliklar bilan og'riganlar va qanday usulilar bilan davolanganliklarini ko'rsatuvchi juda ko'p ashyoviy dalillar topilgan. Shu dalillar asosida biz uzoq o'tmishning ayrim davrlarida tibbiyot qanday darajada rivojlanganligini bilib olishimiz mumkin.

Asosiy qisim:

Mamlakatimiz hududida qadimda yashagan xalqlarning tibbiyoti haqidagi dastlabki yozma ma'lumotlarni zardushtiylar kitobi "Avesto"dan topamiz. Uning "Vendidat" bobida yozilishicha, birinchi bo'lib Trita ismli kishi tabiblik bilan shug'ullangan. Muqaddas islom dini mintaqamizga kelganidan so'ng uning ta'sirida XI asrda faoliyat ko'rsatgan Xorazm Ma'mun akademiyasida zamonasining mashhur olimlari, jumladan, Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroq al-Ja'diy, Abulxayr ibn Hammor, Abu Sahl Iso ibn Yahyo al-Masihiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Ahmad ibn Miskavayh va boshqalar bo'lgan. Bu olimlar Yunoniston, Yaqin va O'rta Sharq, Hindistonning ilm-fandagi yutuqlarini ijodiy, tanqidiy o'rganib, uni yanada yuksak bosqichga ko'targan. Sharq mamlakatlarida "Shayx ur-ra'is" (donishmandlar sardori) nomi bilan, G'arbda esa Avitsenna sifatida mashhur. Buyuk allomaning "Tib qonunlari" asari Yevropa universitetlarida bir necha asr mobaynida darslik sifatida

qo'llangan. "O'zbekiston hududida qadimda ham tibbiyot birlashmalariga o'xshash davolash maskanlari mavjud bo'lgan. Amir Temur boshqa mamlakatlarning mashhur tabiblarini poytaxt Samarqandga olib kelib, maxsus shifoxonalar ochgan. Movarounnahr va Xurosonda shifoxonalar uchun alohida binolar qurilgan. Keyingi temuriyzodalar davrida shifoxonalar ochishga Alisher Navoiy ham katta ahamiyat bergan. Shayboniylar boshqaruvi davrida ham mazkur soha yuksak taraqqiy etgan. Turkistonning ba'zi viloyatlarida maxsus shifoxonalar bo'lganligi manbalarda qayd etilgan. Turkiston chor Rossiyasi tomonidan bosib olinganidan keyin o'lkada G'arbiga xos tibbiy muassasalar vujudga kelgan. Bunga qadar mahalliy aholi xalq tabobati (tabiblar, shikastbandlar)dan foydalangan. Toshkentda birinchi davolash muassasasi 1868 yilda harbiy garnizon qoshida ochilgan lazaret bo'lib, u 1869 yilda harbiy gospitalga aylantirilgan. Keyinchalik Samarqandda (1872), Xivada (1872), Buxoroda (1891) kichikroq kasalxonalar ishga tushirilgan. 1883-yil oxirida Toshkentda ayollar va bolalar uchun birinchi ambulatoriya-shifoxona ochilgan. 1903-yilga kelib esa, Yangi shahar aholisi uchun alohida kasalxona qurilib foydalanishga topshirilgan. 1913-yilda Eski shahar kasalxonasi (hozirgi 1-shahar klinik davolash kasalxonasi) ish boshlagan. 1916-yilda temir yo'l xodimlari uchun maxsus tibbiy davolash muassasasi tashkil etilgan. 1918-yilga kelib esa sobiq kadetlar korpusi binosida davolash muassasasi (hozirgi 1-ToshTIning o'quv bazasi), 1926-yilda Toshsovet nomli fizioterapiya kasalxonasi; Ko'kcha dahasida epidemiologiya kasalxonasi (hozirgi 1-Yuqumli kasalliklar shifoxonasi) faoliyatini boshlagan. temuriylar davrida ham tibbiyot rivojiga katta ahamiyat berilgan. Masalan, Samarqandda "Dor ush-shifo" (Shifo maskani) nomli yirik shifoxona bo'lib, unga o'z zamonasining taniqli tabibi — Mir Sayid Sharif Sheroziy rahbarlik qilgan. Shu davrda Samarqandda boshqa mashhur tabiblar, jumladan, Mansur ibn Muhammad, Mavlono Fayzulloh Tabriziy va Hisobiddin Ibrohim Kirmoniy faoliyat olib borgan. Shifoxonalarda ishlovchi tabiblarga yuqori maosh to'langan, hukmdorlarning maxsus farmoni bilan ularning maoshi olimlar, munajjimlar, tarixnavis va muhandislarning maoshiga tenglashtirilgan Buxoro viloyat davlat arxivi saqlovidagi fond-1023, ro'yxat-1, 180-raqamli yig'majildda O'zbekiston SSR xalq komissarlari soveti tomonidan 1944-yil 23-noyabr sanasida tasdiqlangan tibbiyot muassasalarini kapital ta'mirlash to'g'risidagi 1441-sonli qarori saqlanmoqda. Ushbu arxiv hujjatida tibbiyot muassasalarini kapital ta'mirlashga oid qilinishi rejalashtirilgan tadbirlar, hamda ularga ajratilgan Mustaqillik yillari, xususan, oxirgi besh yilda sog'liqni saqlash sohasida mamlakatimiz erishgan yutuqlarga xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy baho berildi.¹ Masalan, aholining umr ko'rishi 1995-yildagi 69,1 yoshdan 2020-yilda 73,7 yoshga oshdi. Onalar o'limi ko'rsatkichi 3,1 barobar kamayib, 100 ming nafar tirik tug'ilgan chaqaloqqa nisbatan 21 ta holatni tashkil etdi. Chaqaloqlar o'limi ham 3,1 barobar kamayib, 1000 nafar tirik tug'ilgan chaqaloqqa nisbatan 11,5 ta holatni

tashkil etdi. Bolalarda eng ko‘p uchraydigan kasalliklarga qarshi emlash va profilaktika tadbirlari bilan qamrab olish darajasi 96-98 foizlik ko‘rsatkichda qat’iy saqlanib turibdi. Yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish bo‘yicha kompleks profilaktika, epidemiyaga qarshi va sanitariya-gigiyena tadbirlari o‘ta xavfli yuqumli kasalliklar (o‘lat, vabo), shuningdek, poliomyelit, difteriya, chaqaloqlar qoqsholi, mahalliy bezgak, qizamiq va qizilcha yuzaga kelishidan aholini to‘liq himoya qilish imkonini berdi. mablag‘lar ko‘rsatilgan. Sa’y-harakatlar samarasi tufayli mamlakatimizda poliomyelitning yovvoyi shtammi (2002-yil), qizamiq va qizilcha (2017-yil), bezgak (2018-yil) yo‘q qilingani to‘g‘risida Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining sertifikatlari olindi. Tibbiyot tizimiga malakali kadrlarni tayyorlash uchun yurtimizda bir necha oliy o‘quv yurti faoliyat ko‘rsatmoqda. Jumladan, Toshkent tibbiyot akademiyasi, Samarqand davlat tibbiyot instituti, Toshkent tibbiyot akademiyasining Urganch, Termiz, Farg‘ona filiallari, Toshkent tibbiyot pediatriya instituti, Toshkent davlat stomatologiya instituti, Toshkent farmatsevtika instituti, Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti, Andijon davlat tibbiyot instituti, Buxoro davlat tibbiyot instituti malakali kadrlarni tayyorlab bermoqda.

Mamlakatimizda onalik va bolalik muhofazasiga ham katta e‘tibor berilmoqda. Masalan, o‘tgan yildan boshlab 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar va homilador ayollarga yetti turdagi vitamin, bolalar uchun parazitlar kasalliklarga qarshi dori vositalari bepul tarqatilyapti. Bu jarayonga 2021-yilda 11 million nafar aholi qamrab olingan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 17 million nafarga yetadi. Bu ishlarga 100 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirilishi belgilangan. Ayollar va bolalarni yod, temir, foliy kislotasi, vitaminlar, shuningdek, parazitlarga qarshi dorilar bilan bepul ta‘minlash orqali aholi o‘rtasida kamqonlik 25 foiz kamayadi.

Davlatimiz sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlarni o‘z vaqtida boshlab, to‘g‘ri yo‘l tanlagani uchun kutilmagan pandemiya qarshisida sarosimaga tushib qolmadik. Xalqimizning sog‘lig‘i va hayotini asrash maqsadida zudlik bilan barcha tadbirlar ishlab chiqildi. Jumladan, koronavirusga qarshi kurashish uchun maxsus tibbiy markazlar tashkil etildi. Dori-darmon va himoya vositalarining zaxirasi shakllantirildi. Hududlarda ishga tushirilgan 60 ta kislorod stansiyasi tegishli shifoxonalarni kislorod bilan uzluksiz ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda vaksina ishlab chiqarish bo‘yicha amaliy ishlar boshlandi. O‘z paytida ko‘rilgan tezkor va tizimli choralar natijasida ushbu xatarli kasallikning keng tarqalishiga yo‘l qo‘yilmadi va natijada yurtimizda osoyishta hayot, barqaror iqtisodiy rivojlanish davom etmoqda.

Xulosa

Shundan kelib chiqib aytishim mumkinki, tibbiyot va tibbiyot inshoatlari dastlab sharq mamlakatlarida kelib chiqqan. Dastlab yashash sharoitlaridan kelib chiqqan kasalliklar va turli xil olingan tan jaroxatlariga davo izlab, vujudga kelgan tabobat ilmi keyinchalik tibbiyot inshoatlarining ilk ko‘rinishlarini vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Yil o'tgan sari har sohadagi rivojlanish o'z navbatida tibbiyot muassasalarining ham takomillashib , rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan birga yurtimiz xududida yanada keng imkoniyatlarga ega tibbiyot binolari loyihalari qurilishi amalga oshirilmoqda.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O'ZBEGISTON TARIXI. Q'USMONOV,M.SODIQOV,S.BURXONOVA. 2014.YIL .966 B
2. ET. IQTISOD MOLIYA.
3. « O 'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent-200
4. A.A.Qodirov. Tibbiyot tarixi. – Toshkent: “O`zbekiston milliy ensiklopediyasi” [Davlat ilmiy nashriyoti](#), 2005.
5. T.Mirzayev, O.Safarov, D.O`rayeva. O`zbek xalq og`zaki ijodi xrestomatiyasi. Toshkent. – 2008, 83-bet)
6. Vohidov R.,Eshonqulov H. O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi.- [Toshkent](#), 2006
7. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000-2005.
8. TURAR JOY VA JAMOAT BINOLARINI LOYIHALASHNING TIPALOGIK ASOSLARI H.M.UBAYDULLAYEV.M.M.INOG'OMOVA.VORI-NASHRIOTI TOSHKENT-2009._384 B.

ⁱ <https://www.archive.uz/post/ozbekistonda-tibbiyot-muassasalari-tarixiga-qisqacha-nazar-arxiv-hujjatlari-asosida>